


## 2021- yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2021- yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi




#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

**Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 437,1 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 312,4 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.















Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**  
*(2021-yilning yanvar-mart oylarida)*

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2 437,1</b>	<b>104,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	131,6	105,6
Moliyaviy xizmatlar	415,5	122,9
Transport xizmatlari	441,6	99,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	407,4	101,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	58,2	111,7
Savdo xizmatlari	769,7	95,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	63,8	101,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	115,4	126,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	56,8	103,9
Ijara xizmatlari	63,0	141,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	67,0	103,6
Shaxsiy xizmatlar	151,8	98,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	39,6	96,9
Boshqa xizmatlar	63,1	103,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021-yilning yanvar-mart oylarida ularning ulushi 31,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga,

yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (18,1 %), moliyaviy xizmatlar (17,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,4 %) qayd etildi.


Eng yuqori ulush			Eng past ulush		
	Savdo xizmatlari	31,6 %		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,6 %
		34,2 %			2,7 %
	Transport xizmatlari	18,1 %		Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	2,8 %
		18,3 %			2,5 %
	Moliyaviy xizmatlar	17,1 %		Boshqa xizmatlar	2,6 %
		15,4 %			2,6 %
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,4 %		Ijara xizmatlari	2,6 %
		5,6 %			1,9 %
	Shaxsiy xizmatlar	6,2 %		Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,4 %
		6,4 %			2,1 %
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,7 %		Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,3 %
		4,2 %			2,3 %
				Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,6 %
					1,8 %

  Yanvar-mart 2020- y.  
  Yanvar-mart 2021- y.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 2,3 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 2,4 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish savdo xizmatlari (31,6 %), transport xizmatlari (18,1 %), shuningdek moliyaviy xizmatlari (17,1 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi




Avtomobil transport xizmatlarining ulushi 92,3 % ni tashkil etdi.

Omborxon va yordamchi transport xizmatlarining hajmi 7,4 % ni tashkil etdi.

Pochta va kuryerlik xizmatlarning ulushi 0,4 % ni qayd etdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.

**Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi**  
*(2021-yil yanvar-mart oylarida)*



2021-yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 72,1 % ga yetdi.


Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 27,9 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021-yilning yanvar-mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,6 % ni tashkil etib, bu 769,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da**  
*(2021-yilning yanvar-mart oylarida)*



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining 79,0 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,8 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

## Moliyaviy xizmatlar

(2021- yilning yanvar-mart oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 415,5 mlrd. soʻmni - tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020-yilning yanvar-mart oylarida ularning hajmi 327,2 mlrd. soʻmga teng boʻldi.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 17,1 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020-yilning yanvar-mart oylarida ularning ulushi 15,4 % ni tashkil etdi.

**Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 88,3 mlrd. soʻmga koʻpayishi kuzatildi.**



**Moliyaviy xizmatlarning oʻsishi 122,9 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-mart oylarida ularning oʻsish surʼati 164,9 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.



Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



2021 yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 415,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 122,9 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (92,6 %) tashkil etadi.


### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021-yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 131,6 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 105,6 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 96,9 % ni tashkil etdi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi. Nashriyot xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 2,2 % ni tashkil etadi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar


2021-yilning yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 115,4 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,0 % ni tashkil etdi.



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2021-yilning yanvar-mart oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 111,7 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 58,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.


Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,4 % ni tashkil etdi.



2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi 13,5 mlrd. so'mga ko'paydi.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2021-yilning yanvar-mart oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 81,8 % bilan ustunlik qiladi.

2021-yilning yanvar-mart oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,2 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**  
(2021-yilning yanvar-mart oylarida)


2021-yilning yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 56,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 2,3 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 % ni tashkil etdi.




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlar ulushini % da**



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi yuqori – 44,7 %. Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush To'raqo'rg'on (15,8 %), Chortoq (10,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda ushbu ko'rsatkichning ulushi nisbatan katta bo'lmagan hududlar Norin (2,2 %), Mingbuloq (1,7 %), va Uchqo'rg'on (2,7 %) tumanlarida qayd etildi



Xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 36,2 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.


Shuningdek, eng katta ulush To'raqo'rg'on (7,2 %), Chust (6,5 %), Pop (7,1 %) va Uychi (5,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Mingbuloq (4,2 %), Norin (4,7 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Uchqo'rg'on (5,6 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** 2020-yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi 35,6 % ni tashkil etgan.

Mingbuloq tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 4,2 % kuzatilgan.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da**  
*2021 yilning yanvar-mart oylarida*



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq (104,8 %), Norin (103,3 %), Uychi (104,9 %), Yangiqo'rg'on (104,1 %), Namangan t (103,2 %), Kosonsoy (103,9 %), Chortoq (104,5 %) va Chust (105,1 %) tumanlarda qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish To'raqo'rg'on (100,6 %) va Uchqo'rg'on (101,4 %) tumanlarida qayd etildi

Ko'rilayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Namanagan shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 881,3 mlrd. so'mga yetdi.

**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**  
*(2021-yilning yanvar-mart oylarida)*

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2021-y.	2020-y.
Namangan viloyat jami	2 437,1	104,3	110,2
Namangan sh	881,3	105,9	112,8
Mingbuloq	101,1	104,8	107,9
Kosonsoy	139,9	103,9	106,6
Namangan t	146,1	103,2	106,5
Norin	114,8	103,3	106,3
Pop	174,1	103,1	107,4
To'raqo'rg'on	174,5	100,6	106,6
Uychi	141,3	104,9	107,0
Uchqo'rg'on	136,6	101,4	105,3
Chortoq	144,2	104,5	111,3
Chust	158,0	105,1	107,5
Yangiqo'rg'on	125,2	104,1	110,3

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Namanagan (881,3 mlrd. so'm), Pop (174,1 mlrd. so'm) va To'raqo'rg'on (174,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.



### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2021-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 848,2 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,2 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi – 848,2 ming so'm

O'sish sur'ati, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan - 102,2 %

Hajmning o'sishi, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan – 93,9 ming so'mga

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28